INSON TARBIYASIDA TASVIRIY SAN'ATNING ROLI: QALB VA TAFAKKUR ME'MORI

Toxirjon Oltmishev Turgunovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Badiiy Akademiyasi va
O'zbekiston Ijodkorlar Uyushmasi a'zosi

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san'atning inson shaxsini shakllantirish, uning axloqiy, intellektual va estetik kamolotini ta'minlashdagi metodologik hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Muallifning 30 yillik pedagogik kuzatuvlari asosida tasviriy san'atning kuzatuvchanlik, kreativ fikrlash, stressni kamaytirish, iroda va sabr-toqatni shakllantirish hamda kichik motorikani rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, san'at darslari orqali yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlikni tarbiyalash hamda shaxsiy kamolotning sharqona mezonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, estetik tarbiya, komil inson, kreativ fikrlash, kichik motorika, vatanparvarlik, milliy g'urur, qalb va tafakkur, pedagogik kuzatuv.

Аннотация: В статье освещается методологическое и практическое значение изобразительного искусства в формировании человеческой личности, обеспечении ее нравственной, интеллектуальной и эстетической зрелости. На основе 30-летних педагогических наблюдений автора обоснована роль изобразительного искусства в развитии наблюдательности, креативного мышления, снижении стресса, формировании воли и терпения, а также в развитии малой моторики. Также проанализированы восточные критерии воспитания национальной гордости и патриотизма у молодежи и личностного совершенствования через уроки искусства.

Ключевые слова: изобразительное искусство, эстетическое воспитание, совершенный человек, креативное мышление, малая моторика, патриотизм, национальная гордость, сердце и мышление, педагогическое наблюдение.

Abstract: This article highlights the methodological and practical significance of fine arts in shaping the human personality and ensuring its moral, intellectual, and aesthetic perfection. Based on the author's 30-year pedagogical observations, the role of fine arts in the development of observation, creative thinking, stress reduction, the formation of willpower and patience, and the development of small motor

skills is substantiated. It also analyzes the Eastern criteria for fostering national pride and patriotism in youth through art lessons, as well as personal development.

Keywords: fine arts, aesthetic education, a perfect person, creative thinking, minor motor skills, patriotism, national pride, heart and thinking, pedagogical observation.

Tasviriy san’at – insoniyat yaratgan eng qadimiy va eng samimiy tillardan biri. Ko‘pincha odamlar rasm chizishni shunchaki xobbi yoki bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, deb hisoblashadi. Biroq, 30 yillik pedagogik kuzatuvlarim shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at shaxsning shakllanishida, uning axloqiy va intellektual kamolotida beqiyos o‘rin tutadi. Dunyoni anglash va kuzatuvchanlik san’at darsida o‘quvchi nafaqat qalam ushlashni, balki ko‘rishni o‘rganadi. Oddiy inson daraxtga qarasa, shunchaki o‘simlikni ko‘radi. San’at bilan shug‘ullanuvchi inson esa undagi ranglar o‘yinini, yorug‘lik va soyaning uyg‘unligini, shakllarning murakkabligini his qiladi. Bu esa insonda atrof-muhitga nisbatan sinchkovlik va e’tiborlilik hissini uyg‘otadi.

Tasviriy san’at – bu so‘zsiz muloqot. Inson o‘zining ichki kechinmalarini, qo‘rquvlarini yoki quvonchini ranglar orqali ifodalaganda, u ruhan engillashadi. San’at stressni kamaytiradi va tajovuzkorlikning oldini oladi.

Rasm chizish jarayoni – bu doimiy qaror qabul qilishdir: "Qaysi rangni tanlasam ekan?", "Kompozitsiyani qanday qursam to‘g‘ri bo‘ladi?". Bu ko‘nikmalar vaqt o‘tishi bilan hayotiy muammolarga kreativ yondashish qobiliyatiga aylanadi. San’atkor bola standart qoliplardan tashqarida fikrlashni o‘rganadi.

Go‘zallikni his qila oladigan inson hech qachon yomonlikka qo‘l urmaydi. Tasviriy san’at insonda nafosat tuygusini shakllantiradi. Milliy va jahon san’ati durdonalari bilan tanishish esa yosh avlodni o‘z tarixiga, madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalaydi. "Har bir bola rassom bo‘lib tug‘iladi. Asosiy maqsad – u ulg‘ayganida ham ushbu ijodkorlik olovini o‘chirib qo‘ymaslikdir." Tasviriy san’at darslari faqatgina rassomlar yetishtirib chiqarish uchun emas, balki komil insonni shakllantirish uchun xizmat qiladi [1].

Inson komillikka intilib yashaydi. Muttasil kamolotga intilish-taraqqiyot boisidir. Bu jarayonda, nuqson, xatolik, kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yish mumkin, ammo ularni tushunib, o‘z vaqtida tuzatib, takror yetmaslikka harakat qilgan kishi barkamol insondir. Komil inson shaxsida shakllanishi kerak bo‘lgan sifatlar, xislatlarni birma-bir sanab ko‘rsatish o‘ta mushkul ish. Shu darajada ko‘p qirraliki, ular insoniyat orzulari, umidlari, ideallari, istiqbollari bilan bog‘liq. Lekin mazkur sifat

va xislatlarning ba'zilarini ko'rsatib o'tish mumkin. Komil inson shaxsida, eng avvalo, aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuqori madaniyat, ma'naviy saviya, yuksak iftixor, milliy va umuminsoniy g'urur shakllangan bo'lishi kerak. Jamiyatda, jamoada, oilada o'z o'rnini topgan, uning rivojida faol ishtirok etadigan, ijtimoiy-siyosiy qonuniyatlarni yaxshi bilgan, milliy o'zlikni anglagan, o'zbekona qadriyatlar, urf-odatlarni e'zozlaydigan, kasbi bo'yicha zamonaviy texnologiyalardan xabardor, tadbirkor bilimdon bo'lishi kerak. O'zbek pedagog olimlarimiz komil insonning sharqona xislatlarini turkumlab, faoliyatining zaruriy yo'nalishlari bo'yicha belgilashga harakat qilganlar. Jumladan:

- yoqimlilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik, maftunkorlik, fusunkorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, oydinlik, ochiqlik, yetuklik, iqtidorlilik, salohiyatlilik, ko'tarinkilik, jo'shqinlik, jiddiylik, moslashuvchanlik, ziyolilik, savodxonlik, tabiiylik, oddiylik kabi;

- odamiylik, qanoatlilik, jonkuyarlik, mehribonlik, rahimdillik, hikmatlilik, bolajonlik, muloyimlik, hushmuomalalik, do'stlik, samimiylik, kechirimlilik, andishalilik, mehmondo'slik, halollik, to'g'rilik, diyonatlilik, pokizalik kabi;

- quntlilik, tirishqoqlik, javobgarlik, mas'uliyatlilik, raqobatlilik, ishchanlik, malakalilik, abjirlik, saranjom-sarishtalik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, sabr-toqatlilik, rejalilik, tejamkorlik, xomiylik, insoflilik kabi;

- zehnlilik, ziyraklik, zakovatlilik, teran fikrlilik, asoslilik, oldindan aytib bera olishlik, ijodkorlik, tanqidiylik, omilkorlik, qiziquvchanlik, ishqibozlilik, sinchkovlik, topqirlik kabi;

- serg'ayratlilik, qat'iyatlilik, epchillik, serzavqlik, intizomlilik, bosiqlik, me'yoriy chegarani bilishlik, o'zini yo'qotmaslik kabi;

- shodmonlik, quvnoqlik, o'z hayotidan rozilik, baxtiyorlik, xazilmutoyibalik, kek saqlamaslik, ozodalik, nozik tabiatlilik, ezgulik, kelajakka ishonch, iffatlilik kabi.

Komil insonni tarbiyalash – oilalarimizning, ta'lim-tarbiya muassasalarimizning, umuman, davlatimizning, jamiyatimizning, mustaqil O'zbekistonimizning oliy maqsadidir. Bu yo'lda yoshlarimiz sabr va chidam bilan bilim olishga astoydil harakat qilishlari kerak bo'ladi. Mamlakatimizda yashayotgan har bir yosh bitta maqsad yo'lida izlanishlari, bilim olishlari shart. Bu – yo'l O'zbekistonimizning ertangi kuni, kelajagi va istiqbolini belgilab beruvchi yo'ldir. Bu ezgu maqsadga faqat bilim orqali erishish mumkinligini barcha yoshlarimiz teran anglab yetishlari lozim. San'at orqali tarbiya topgan inson hayotga teranroq qaraydi, go'zallikni qadrlaydi va har qanday ishda ijodiy yondashuvni saqlab qoladi. Iroda va sabr-toqatni shakllantirish. Zamonaviy bolalarda "tez-

kor natija"ga o‘rganib qolish (gadjetlar ta’sirida) muammosi bor. Tasviriy san’at esa shoshqaloqlikni yoqtirmaydi. Bir manzarani yoki portretni yakuniga yetkazish uchun o‘quvchidan soatlab diqqatni jamlash talab etiladi. Bola mehnat qilmasdan, sabr ko‘rsatmasdan turib go‘zal natijaga erishib bo‘lmasligini anglaydi. Bu hayotiy irodani mustahkamlaydi.

Ilmiy isbotlangan haqiqat bor: "Inson aqlli barmoqlari uchida". Tasviriy san’at bilan shug‘ullangan bolaning kichik motorikasi rivojlanadi, bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutq markazlari va mantiqiy fikrlash bilan bog‘liq. Rasm chizadigan o‘quvchilar matematik hisob-kitoblar va geometrik shakllarni o‘zlashtirishda tengdoshlaridan ko‘ra ilg‘orroq bo‘lishadi. O‘ziga bo‘lgan ishonch va komplekslardan xalos bo‘lish. Ko‘pgina bolalar ichki qo‘rquvlari yoki "men eplay olmayman" degan hadiklari sababli o‘zini chetga oladi. San’atda "xato" degan tushuncha yo‘q, faqat "o‘ziga xos yondashuv" bor. Oq qog‘ozni bo‘yoqlar bilan to‘ldirgan va o‘z ijodiy mahsulini yaratgan bolada "Men yarata olaman!" degan kuchli ichki ishonch paydo bo‘ladi.

Vatanparvarlik va milliy g‘urur, Biz darslarda o‘quvchilarga ranglarni o‘rgatish bilan birga, milliy naqshlarimiz, qadimiy obidalarimiz va buyuk rassomlarimizning asarlarini tahlil qilamiz. O‘zbekiston tabiatini chizgan bola o‘z yurtining tuprog‘ini, osmonini va ranglarini sevishni o‘rganadi. Bu – quruq so‘z bilan emas, qalb bilan his qilinadigan vatanparvarlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madumarov T., Kamoldinov M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari va uni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash. – Toshkent: Talqin, 2012.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: https://president.uz

3. Olamsport axborot portali. – URL: https://olamsport.com/oz/news/10793